

Axborot-kutubxonalarida “Omadli kitobxon” loyihasini tashkil etilishi bo`yicha uslubiy tavsiyanoma



“OMADLI KITOBXON” LOYIHASI MAQSADI



Maqsadi: Ushbu omadli kitobxon loyihasini tashkil etishdan asosiy maqsad aholi, ayniqsa bolalar va yoshlar orasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish, ularning intellektual salohiyati va ma’naviy saviyasini yuksaltirishdan iborat. Shuningdek bu loyiha asosida kutubxonada kitobxonlar sonini oshirish va aholini kitobga bo`lgan do`stona mehrini uyg`ota olish, kutubxonaga tashrif buyurish bilan bir qatorda ham manan, ham moddiy tomondan manfaatdor bo`lishlik asosiy maqsad qilib olingan.

Umumiy qoidalar

Umumiy qoidalar: Ushbu “Omadli kitobxon” sovrinli loyihada ishtirok etish uchun kitobxon avvalo kutubxonaga tashrif buyurishi kerak. Tashrif chog`ida kitobxon bevosita kutubxona faoliyati bilan yaqindan tanishadi. U yerdagi imkoniyatlar, yaratilgan shart-sharoitlar qolaversa yangi adabiyotlardan, internet tarmoqlardan foydalanib o`zi uchun kerakli bo`lgan ma`lumotlarga ega bo`ladi va yana vaqtini mazmunli o`tkazishi mumkin. Shu vaqt mobaynida kitobxon foydalanuvchilar ro`yxatiga olinadi va unga maxsus qog`ozcha beriladi. Unga o`zining ism familiyasi, shaxsiy imzosi va telefon raqamini yozib qoldiradi. So`ng o`z mahallasi nomi yozilgan maxsus yashirin qutiga qog`ozchani tashlaydi. Har oyning oxirida yashirin qutilar har bir mahalla binosi yoki AKM da ochilib, undan bitta omadli kitobxon aniqlab olinadi va unga hamkor tashkilotlar tomonidan esdalik sovg`alar va diplom topshiriladi.


Kitobxon bir vaqtning o`zida ham moddiy, ham ma`naviy tomonidan manfaatdor bo`ladi.

Bu loyihada g`olib bo`lish uchun yanada imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida har bir kitobxon har kuni kutubxonaga tashrif buyurib, maxsus qutidagi shaxsiy qog`ozchalar sonini ko`paytirishi va g`olib bo`lish uchun imkoniyatini oshirishi mumkin.


Bu loyihada ishtirok etish uchun yosh nuqtai nazardan chegara yo`q ixtiyoriy kitobxon kutubxonaga tashrif buyurib, loyihada qatnashishi va g`oliblikni qo`lga kiritishi mumkin.

Hamkor tashkilotlar – Mahalla, Yoshlar ishlari agentligi, ma`naviyat va ma`rifat markazlari hamda AKM.

“Omadli kitobxon” loyihasidan foto lavhalar





“Omadli kitobxon” loyihasining g`olib ishtirokchilari



“Omadli kitobxon” loyihasi uchun tayyorlangan video lavhalar

Omadli kitobxon
loyihasiga chorlov
maqsadida tayyorlangan
video lavhalar



Omadli kitobxon
loyihasida g`oliblarni
aniqlash va taqdirlash
jarayoni





E`TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!